

8-MART -**XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI**

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!N:9 (67226)
2019-yil 4-mart

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

DILNOZA KUBAYEVA

MAKTABDA QANDAY O'QUVCHI BO'LGAN?

– O'quvchiligimda ilk bor bolalar nashrlaridan birida she'rim chop etilganida rosa hayajonlanganim esimda. Bejizga yuragimdagi tuyg'ularni she'rga solmagan ekanman. Keyinchalik o'sha hislar meni san'at olamiga yetaklagan bo'lsa, ajabmas!

3-bet

BAHAR – ONAM QUCHOG'IN TO'LDIRAR GUL

*Beshikda yangragan alla navosi,
Onamning bizga qilgan pok duosi.
Bahar – onam quchog'in to'ldirar gul,
Bahar yanglig' vafodor, mehribon ul.*

AXTAMQULI

DIQQAT, XUSHXABAR!

O'ZBEKISTONDA PREZIDENT
MAKTABLARI TASHKIL QILINADI

Har bir jamiyatning mavqei uning yosh avlodga bo'lgan munosabati, e'tiboriga qarab belgilanadi. Shu fikrdan kelib chiqsak, O'zbekistonimizning mavqei juda baland! Chunki yurtimizda yoshlar masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, Istiqbolimizning keyingi ikki yili mobaynida bu borada yanada ko'proq, yanada samaraliroq islohotlar amalga oshirilayotganiga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz.

Kuni kecha yurtimizda ta'limga oid yana bir xushxabar tarqaldi: O'zbekistonimizning barcha viloyatlarida bosqichma-bosqich Prezident maktablari tashkil etiladi. Bu haqda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joylarda

Ushbu maktablarga qabul qilish respublika ta'lim muassasalarining 4-sinf bitiruvchilari orasida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladigan mantiqiy fikrlash testlari, yozma imtihon va suhbatlar natijalariga ko'ra amalga oshiriladi. Prezident maktabining yillik qabul kvotasi 24 nafar o'quvchidan iborat bo'lib, ikkita sinfga bir xil – 12 nafardan o'quvchi taqsimlanadi. Birinchi o'quv yilida esa 5–10-sinflar uchun har bir maktabga 144 nafardan o'quvchi o'qishga qabul qilinadi. O'quv jarayoni xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan rejalar va dasturlar bo'yicha ingliz tilida amalga oshiriladi. «STEAM-ta'lim»

(Science – tabiiy fanlar, Technology-texnologiya, Engineering-texnika, Engineering-texnika ijodkorlik, ART-san'at, Mathematics-matematika) dasturi asosida olib boriladi. Prezident maktabining 9–11-sinflarda ta'lim olish o'quvchining qiziqishlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda individual o'quv jarayoni asosida amalga oshiriladi. Prezident maktabi bitiruvchilariga belgilangan tartibda davlat tomonidan tasdiqlangan shahodatnoma, attestat bilan bir qatorda xalqaro darajadagi tegishli dastur diplomi (International Baccalaureate, Advanced Placement yoki International Advanced Levels) topshiriladi.

Ma'lumotlarga qaraganda, dunyo bo'yicha tug'ilgan har o'n chaqaloqdan sakkiz nafari qobiliyatli hisoblanadi. Ammo ularning hammasi ham ta'lim uchun munosib sharoitda voyaga yetmaydi. Shu bois, aksariyat bolalarning iqtidori yuzaga chiqmay qolib ketadi. Bolalarning taqdiri nafaqat davlatni, balki o'z ota-onalarini ham qiziqitirmaydigan mamlakatlar ham yo'q emasligini nazarda tutsak, bizning yurtimizda yosh avlodning barkamol ulg'ayishi uchun yaratilgan

shart-sharoitlarga havas qilsa arziydi. Har bir bola dunyoga kelgan ilk kunidanoq ota-onasininggina emas, balki davlatimizning ham mehridan, e'tiboridan bahramand bo'lib yashaydi, sifatli ta'lim oladi, kelajagining poydevorini quradi. Prezident maktablarini tashkil qilishdan ko'zlangan maqsad zahirida ham ana shunday ezuq-niyat mujassam.

Xalq

ta'limi vazirligi hamda

Kembrij Universitetining Cambridge

Assessment International Education brendi ostida faoliyat yurituvchi Imtihon Kengashi o'rtasida anglashuv memorandumini imzolandi. Hujjat Prezident maktablari o'quv jarayonlarini rivojlantirish va shakllantirishda XTV hamda Cambridge Assessment International Education o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Vazirlik

matbuot xizmatining xabar berishicha, Cambridge Assessment bilan imzolangan memorandum doirasida Prezident maktablari qabul jarayonini adolatli, ishonchli va shaffof o'tkazishni joriy etish belgilandi.

Cambridge

Assessment Prezident maktablari o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishga yordam beruvchi o'quv dasturlarini joriy etishda ko'mak beradi.

2019-yil

holatiga ko'ra, Kembrij Universiteti Buyuk Britaniyaning eng yaxshi universiteti hisoblanadi. Oliygo'ra butun dunyo universitetlari reytingida 2-o'rinni egallaydi. «Times Higher Education» reytingiga ko'ra, Kembrij universiteti barcha fanlarning o'qitilishi bo'yicha top-10 ro'yxatiga kiruvchi dunyodagi yagona oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.

800

yillik tarixi mobaynida

Kembrij universitetining bitiruvchilari orasidan mashhur taniqli matematiklar, olimlar, siyosatchilar, yuristlar, faylasuflar, yozuvchilar, hatto xorijiy davlat rahbarlari ham yetishib chiqqan. 2018-yil oktabr oyiga ko'ra, 118 nafar Nobel mukofoti laureati, 11 nafar xalqaro akademik medalistlari, 6 nafar Turing mukofoti laureati va Buyuk Britaniyaning 15 nafar Bosh vazirlari Kembrij universitetining bitiruvchilari, talabalarlari hamda tadqiqotchilari safidan o'rin olgan.

ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasida bo'lganida, Nukus shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvda ma'lum qilgan edi.

Shunga muvofiq Davlatimiz rahbari 2019-yilning 20-fevral kuni «Prezident maktablari tashkil etish to'g'risida»gi Qarorni imzoladi. Qarorga ko'ra O'zbekistonning har bir hududida Prezident maktablari Qoraqalpog'istonda, shuningdek, O'zbekistonning barcha viloyatlari va Toshkent shahrida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari shaklida tashkil etiladi. Dastlabki Prezident maktablarining qurilishi joriy yilda bir vaqtning o'zida Toshkent va Nukus shaharlarida, Xorazm viloyatida boshlanadi. 2020-yilda Buxoro, Jizax, Qashqadaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida, 2021-yilda Andijon, Navoiy, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida tashkil etilishi rejalashtirilgan.

O'z-o'zidan o'rinli savol tug'iladi: o'quvchilarga o'z bilimlarini sinovdan o'tkazishlari, iqtidorlarini yuzaga chiqarishlari uchun yana bir imkoniyat tarzida tashkil etilayotgan Prezident maktablariga o'qishga kirish qanday tartibda amalga oshiriladi?

Aziz o'quvchim! Ota-onangizning maktabdagi darslarda siz bilan birga ishtirok etishini istarmidingiz? Ayniqsa, jismoniy tarbiya fanida birga to'p o'ynash yoki musobaqalashishga nima deysiz?

OTA-ONALAR
UCHUN OCHIQ
ESHIKLAR KUNI

Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 255-umumta'lim maktabida o'tkazilgan «Ochiq eshiklar kuni»da o'quvchilar ana shunday imkoniyatga ega bo'ldi. Shu kuni 9-«A» sinfida 3-soat «Din tarixi» darsi o'tildi. Behzod Saydullayevning onasi Muhabbat opa Zokirova farzandini qanday o'qishi, uning sevimli ustozlari Nigora Qurbonovaning mahoratini bevosita kuzatib, behad mamnun bo'ldi. Bundan tashqari, shu kuni mazkur dargohga tuman deputatlari, mahalla faollari tashrif buyurdi. Boshqa tumandagi ta'lim maskanlaridan taklif etilgan ustozlar esa barcha jarayonlarni baholab bordi.

Natija kutilganidek a'lo bo'ldi. Zero, maktab rahbari Dilora Jo'rayeva boshchiligidagi tashabbuslar tahsinga sazovor. «Zakovat» intellektual musobaqasi, bilimdonlar uchun joriy qilingan «Humo» rag'bat kartochkasi, «Men yulduz bo'la-man» tanlovi, «Kichik akademiya» to'garaklari shular jumlasidan. Buni qarangki, ushbu o'quv dargohining 7-«A» sinfida tahsil olayotgan Shahzoda To'liqinova gazeta-mizning muxlisi ekan. U maktabdagi kitobxonlar klubi a'zosi bo'lib, o'zi ham she'r yozishni mashq qilarkan.

Shu kuni tumandagi 231-umumta'lim maktabida o'zgacha tarzda tashkil etilgan «Ochiq eshiklar kuni»da ham ishtirok etdik. O'tkazilgan ochiq darslar, tarbiyaviy soatlarni kuzatar ekanmiz, ayniqsa, «Men, onam va ustozim» mavzusidagi sport musobaqasi o'quvchilarga juda manzur bo'ldi. Bellashuvdan so'ng ota-onalar bilan maktab kutubxonasi-ga yo'l olgan o'quvchilar «Eng yaxshi kitobxon oila» deb nomlangan ajoyib tadbirda ishtirok etdi.

Bellashuvda onasi va singlisi bilan qatnashgan 6-«A» sinf o'quvchisi Zarina Ismoilova juda xursand edi. O'z navbatida, kutubxonachi Farida Begayeva ota-onalarni ziyo maskanida o'quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishtirdi. Mehmonlarning iliq fikridan quvongan maktab rahbari Nilufar Inamova ta'lim maskani eshiklari barcha uchun doimo ochiq ekanini ta'kidladi.

Feruza JALILOVA

S. QODIROVA

USTOZ BAHORGA O'XSHAYDI

Bahor kelib, qalbim shodlikka to'ldi. Bu faslni shoirlar kelinchakka qiyoslasa, men ustozimga o'xshataman.

Buni qarangi, ona tili va adabiyot fani o'qituvchining ism-shariflari ham Guliston Sotiboldiyeva. Ular turli asarlardan parcha o'qib berganlarida, biz o'quvchilar go'yo sehlranib qolamiz. Ustozim shunday mahorat bilan dars o'tadilarki, mening kitoblarga mehriim ortaveradi. Hatto maktabimiz rahbari Shahnoza opa Sayfullayeva ham ustozimni ko'p maqtab, boshqa muallimlarga namuna qilganlarining guvohi bo'lganman.

Direktorimizning o'zlari ham juda jonkuyar va tashabbuskor. Men esa «Kamalak» bolalar tashkilotining tumanimiz bo'yicha matbuot sardoriman. Kelajakda jurnalist kasbini egallab, ustozlarimni butun respublikaga tanitishni orzu qilaman.



Ruxshona TURSUNMURODOVA,
Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi
117-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

ONAM BILAN FAXRLANAMAN



Quyoshdan so'rashibdi: «Sening haroratingdan-da zo'rroq taft bormi dunyoda?» «Bor», javob beribdi Quyosh. «Ona mehri mening taftimdan kuchliroqdir».

Bu Bibirajab buvijonimning biz nabiralarga aytgan navbatdagi hikoyatlaridan biri. Darhaqiqat, biz farzandlar aziz va mo'tabar onalar va buvijonlarni astoydil ardoqlab, ularning xizmatida bo'lishimiz kerak.

Gulnoza onajonim, Bibirajab va Gulchehra buvijonlarim bizlarning sog'lig'imiz va kelajagimiz uchun doimo qayg'uradi. Akam Maqsudbek 5-sinfda o'qiydi, singlim Zuhayrabegim bog'chaga boradi. Ish buyurganda «uf» tortmaslik, nasihatlariga quloq solish, ishlariga ko'maklashish kerakligini hamisha uqtiradilar. Men dunyodagi barcha onalar ko'zlarida hamisha quvonch porlab turishini xohlayman.

Muzdalifabegim MUXTORALIYEVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 27-umumta'lim
maktabining 3-«G» sinf o'quvchisi

SHAHRISABZ – BENAZIR DIYOR

Shahrisabz – dunyo tan olgan, buyuk Amir Temur tug'ilib voyaga yetgan ko'hna shahar. Men bu betakror kentdan 60 chaqirim narida, qorli tog'lar, gul vodiylar bag'rida joylashgan Almati qishlog'ida tug'ilganman.

Rivoyat qilishlaricha, qishlog'imizda bir zamonlar Almat degan odam yashagan. Ana shu insonning avlodlari bu qutlug' go'shani makon qilib, qishloqni bobosining nomi bilan atagan ekan.

Qishlog'imizning toza havosi, so'lim tabiati, sharqirab oqqan zilol suvlari, purviqor tog'lari, maftunkor bahori, bog' to'la mevalari, qo'y-qo'zilarining ma'rashi, tong saharda xo'rozlarning qichqirishi menga ilhom bag'ishlaydi. O'qishga, bilim egallashga va mehnat qilishga undaydi.

Hozirda maktabimizda tashkil etilgan turli fan va sport to'garaklarida tengdoshlarim bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazmoqda. Men ham ona tili va adabiyot hamda shaxmat-shashka to'garagiga qatnayman. O'tgan yil xotira turnirida shaxmat bo'yicha 1-o'rinni egallab, faxriy yorliq oldim. Kelajakda a'lo baholarga o'qib, ona yurtimga munosib farzand bo'laman.

Nafisa XURRAMOVA,
Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumanidagi
49-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi



– Teatrda turli spektakllarni tomosha qilishni yaxshi ko'raman.

Ayniqsa, unda onam ishtirok etganida, o'zgacha maroq bilan kuzatib, faxrlanib ketaman, – deydi Muhammadamin. Tengdoshingizning fikrlarini o'qishingiz bilan «Bu bolaning onasi qaysi aktrisa ekan-a?» deya o'ylanib qolganingiz aniq. Bu barchamiz uchun sevimli va yoqimli aktrisa Dilnoza KUBAYEVAdir.

DILNOZA KUBAYEVA MAKTABDA QANDAY O'QUVCHI BO'LGAN?



Muhammadaminga onasi ismiga monand rostgo'y, aqlli, odobli va dono inson bo'lsin deya, shunday ism qo'ygan ekan.

Tengdoshingiz onasi – elimiz suyg'an teatr va kinoaktrisa Dilnoza Kubayeva kabi san'atni juda sevadi. Validasi esa uning kelajakda san'at yo'lini tanlashi borasida faqat qo'llab-quvvatlashga tayyor. Zero, sevimli san'atkor opangiz bugun turli rollari orqali kattalar-u yosh tomoshabinlar mehrini birday qozona olgan. Aktrisa, ayniqsa, «Bolajon» telekanalida efigra uzatilayotgan «Birinci ustoz» qo'shig'iga olingan klipdagi o'qituvchi obrazi orqali Siz bolajonlar uchun yanada qadrdon bo'lib qolgan. Bundan tashqari, quvnoq va samimiy Dilnoza opangizni har yili O'zbek Milliy akademik drama teatri sahnasida namoyish etiladigan Yangi yil tomoshalaridagi Zumrad obrazi orqali kashf etgan bo'lsangiz, ajab emas. Aslida, sevimli san'atkorimiz bolaligida ham bu ertak qahramonini juda yaxshi ko'rgan, hamisha unga o'xshashga harakat qilgan ekan. Birinchi muallimi haqida so'z ketganida esa ustoz Dilbar opani mehrila yodga oladi.

Yuqori sinfda o'qib yurgan kezlari muallima Mavluda Abdullayeva shogirdidagi iste'dodni payqab, uni ijodga yo'naltiradi. Ta'lim dargohidagi to'garakda o'z nutqini

oshirgan iste'dodli qiz keyinchalik Alisher Navoiy nomidagi Respublika Nafis san'at litseyining suxandonlik bo'limida tahsil oladi. Litseyda o'qib yurgan kezlari Dilnoza opangizning she'rlari gazeta-jurnallarda ham chop etilgan.

Shu bois, kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida o'tkazilgan «Bolalik kunlarimda» nomli loyiha taqdimotida biz sevimli san'atkorimiz bilan uchrashib, gazetamizning yangi sonini sovg'a qilganimizda, u qadrdon nashrini ko'rganidan xursand ekanini yashiradi. Va mazkur tadbirda ham aktrisa «Zumrad va Qimmat» ertagidagi sevimli qahramonini yaratdi.

Qahramonimizning oilasi haqida ham qiziqqanimizda, quyidagilarni so'zlab berdi:

– Oilada to'rt farzandimiz. Uch o'g'il va kamina bir qiz. Otamning kasblari o'qituvchi bo'lgani bois, maktabda hamisha eng tartibli va intizomli o'quvchi bo'lishga harakat qilganman. Onam esa mehribon va sabrli ayol. Validam biz farzandlarda ham ijobiy fazilatlarni kamol toptirishga harakat qilgan. Bugun esa men ham o'g'limni voyaga yetkazar ekanman, uning kelajakda avvalo, yaxshi inson bo'lib voyaga yetishini istayman.

Doimo samimiylikni qadrlagan elimizning sevimli san'atkoriga bahor ayyomida o'zimizning eng samimiy tilaklarimizni bildirdik.



Muhammadamin Ahmadaliyev
Glier nomidagi Respublika
ixtisoslashtirilgan musiqa akademik
litseyining 4-sinfida tahsil olib,
fortepiano va klarnet musiqa sozlarini
chalishni o'rganmoqda.

Sayyora QODIROVA

Aziz qizlarjon! Orangizda raqsga tushishni yoqtirmaydiganlar bo'lmasa kerak-a? Bugun sizlarga tanishtirmoqchi bo'lgan iqtidorli dugonalaringiz ham raqs to'garagi a'zolari.

ORZULAR QANOT QOQMOQDA

Tengdoshlaringiz Zilola va Shodiya Zikrillayevlar poytaxtimizdagi 59-umumta'lim maktabining eng namunali o'quvchilaridan. Zilola 4-, Shodiya esa 2-sinfda a'lo baholarga o'qiydi. Ayni paytda ular barcha fanlarni qunt bilan o'rganmoqda. Ayniqsa, matematika, ingliz, rus va ona tillari ularning jon-u dili. Qolaversa, sinfdoshlari orasida ham bu ikki qizaloq o'zining og'ir-vazminligi, bilimga chanqoqligi bilan alohida ajralib turadi. Ular maktabdagi mehribon ustozlari – Rezita Almuhammedova hamda Anna Bulatovlarning nomlarini hurmat bilan tilga oladilar.

Qizaloqlar poytax-

timizdagi «Jar» sport kompleksi qoshida tashkil topgan «Qaldirg'och» nomli raqs to'garagiga qatnaydi.

– Raqs qiz bolaga qaddi-qomatni tik tutib, sog'lom va barkamol o'sishiga yordam beradi, – deydi to'garak rahbari Feruza Mirolimova. – Qolaversa, bu san'at ko'pchilik insonlarning mehrini qozongan. Axir Mukarrama Turg'unboyeva, Qizlarxon Do'stumuhammedova, Dilafro'z Jabborova kabi ustoz raqqosalarning aylagan xiromlari kimlarni rom etmagan, deysiz. Ana shu insonlarga havas qilib, ko'plab bobo-buvijonlar jajji nabiralari to'garagimizga yetaklab kelishadi.

Feruza opa doim qizlarga bir gapni qayta-qayta takrorlaydi: oyoq-qo'llaringiz chaqqon, nazokatli, mehnatsevar, muloyim bo'lib, doimo yuzingizdan tabassum arimasin!

Tilagimiz, Zilola va Shodiya kabi o'z ustringizda ishlashdan, orzularingiz sari ildam qadam tashlashdan aslo charchamang! Shundagina o'ylagan barcha ezgu niyatlarigizga yetishasiz, albatta.

Manzura
UBAYDULLAYEVA

JASMINANI TANIYSIZMI?

Bugun yurtimizda har bir o'g'il-qizning mukammal bilim olishi, iqtidorini ro'yobga chiqarishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Sportga qiziqasizmi, marhamat, maktabingizda tashkil etilgan to'garakka a'zo bo'ling, kitob o'qishga havasingiz bo'lsa, maktab kutubxonasidagi rang-barang kitoblarni siz uchun muntazir... Xullas, bor iqtidor-u iste'dodingizni namoyish qiling, maktabingiz, ustozlaringiz ishonchini oqlashga harakat qiling.

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 7-sinfida

tabinigizda ham ilmga chanqoq, iste'dodli tengdoshlaringiz bormi?

tahsil olayotgan Jasmina Jalolovaga barcha maktabdoshlari havas bilan qaraydi. U o'tgan yili o'zbek tili fanidan «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichi g'olibligini qo'lga kiritgan. Ayni damda ko'pchilik bolajonlar qiziqish bildirayotgan mental arifmetika bo'yicha Buxoro shahri va Qiziltepa tumanida bo'lib o'tgan bellashuvlarda ham g'olib bo'ldi.

– Men badiiy gimnastikaga juda qiziqaman, – deydi Jasmina. – Bir necha yildan buyon sportning ushbu turi bilan shug'ullanaman. «Umid nihollari – 2019»da 1-o'rinni egallab, viloyat bosqichida ham muvaffaqiyatli ishtirok etganman.

Aziz o'quvchilar, sizning mak-

Ular haqida bizga yozib yuborishni unutmang.

O. TURSUNBOYEVA



YAXSHI DO'ST

Kitob insonga ma'naviy ozuqa beradi, uni komillik sari yetaklaydi. Kitobni avaylaydigan va sevim o'qiydigan odamning dunyoqarashi keng, fikri teran bo'ladi. Quvonarlisi, fan-texnika rivojlanib bora-

yotgan shunday bir zamonda yurtimizda yoshlarni mutolaa-ga jalb qilish va kutubxonlarni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda «Yosh kutubxon» ko'rik-tanlovi haqida ham to'xtalib o'tish joiz.

BAHORIY KO'RGAZMA

Toshkent shahri, Bektemir tumanidagi 292-umumta'lim maktabi sinf xonalari darsdan so'ng ham o'quvchilar bilan gavjum bo'lar ekan. Ayniqsa, «Yosh musavvir» to'garagi xonasidan qiziquvchan bolalarning qadami uzilmaydi.



To'garak rahbari Rahimjon aka Ma-mayunusov o'z shogirdlarini tasviriy san'atning sehirli olamiga oshno etgan, go'yo. Bugunga kelib 100 dan ortiq ijodiy ishlar yaratgan 11-«A» sinf o'quvchisi Mushtariy Alimovanning ko'rgazmasi bunga isbot bo'la oladi. Rassom qiz maktabning faollar zalida «Men bahorni sog'indim» deb nomlangan shaxsiy ko'rgazmasini ham tashkil qilibdi. Aslida, bu iste'dodli qizning chizgan rasmlari «Kamalak» yulduzlari, «Zulfiyaxonim qizlari», «Yuksak ma'naviyatli avlod» kabi tanlov va festivallarda munosib o'rin olib ulgurgan. Mushtariyga havas qilgan maktabdoshlari – Maftuna Ergasheva, Shahrizoda Murodxo'jayeva, Nigina Abdusattorova ham eng faol o'quvchilardir. Maktabning xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti rahbari Yulduz opa Atabayeva, o'quv dargohi rahbari Mahmudjon Ahmedov esa bu kabi ilmga chanqoq o'quvchilar uchun barcha sharoitlarni yaratish harakatida.

So'zimiz yakunida Sizni iste'dodli tengdoshingizning 25-martga qadar davom etadigan rasmlar ko'rgazmasiga taklif etamiz.

QIZLARXON

Aytish kerakki, ushbu tanlovda ko'p kitob o'qiydigan zukko va dono o'g'il-qizlar o'z bilimlarini sinovdan o'tkazmoqdalar. Qolaversa, kutubxon do'stlar orttiradilar, bir-biridan qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ladi. Men barcha tengdoshlarimga kitob o'qish hayotimiz mazmuniga aylasin, deymen.

Hulkar ISLOMOVA,
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 40-umumta'lim maktabining 9-«V» sinf o'quvchisi

Matematika va informatika fan oyligini mazmunli o'tkazish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegeyli tumanidagi 11-umumta'lim maktabida turli kechalar, ochiq darslar, viktorinalar va bellashuvlar tashkillashtirildi.



FAN OYLI MAZMUNLI O'TDI

Ayniqsa, o'quvchilar «Al-Xorazmiy va Beruniy siymolarini mo'yalamda tasvirlash» tanlovida faol ishtirok etdi. «Zakovat», «7x7»

Karamatdinova, Salima Sarsenbayeva, Nilufar Qaypanova, Paraxat Hamidullayev, Aynura Tilepova kabi o'quvchilar turli yo'nalishlar bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi.

– Fan oyligi o'quvchilarni o'z ustilarida yanada izlanishga chorladi. Qolaversa, ular matematika fani bo'lgan qiziqishini har bir ochiq darsda, muso-

baqalarda ko'rsata oldi. O'quvchilarning faolligini ko'rib, meni ham maktab davrlarimga qaytgim keldi. Ularning bilimiga chanqoqligi, ilm o'rganishga ixlosmandligi bizni quvontirdi, – deydi maktab direktori Genjexan Bayimbetova.

Minayim DOSHIMOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Kegeyli tumanidagi
11-umumta'lim maktabining
matematika fani o'qituvchisi



yo'xud «O'yla, izla, top!» musobaqalari ham qiziqarli tarzda tashkil qilindi. Shuningdek, oylik davomida o'quvchilar ijodiy ishlaridan namunalari, krossvordlar, fanga doir turli ko'rgazmali qurollar taqdimoti bo'lib o'tdi. «Zakovat» o'yinida esa 5–11-sinf o'quvchilaridan tashkil topgan «Ulug'bek», «Beruniy», «Al-Xorazmiy», «Evklid», «Pifagor», «Dekart», «Fales» jamoalari turli shartlar bo'yicha o'zaro bellashdilar. Yakunda Tumaris O'serbayeva, Nurlan Dao'letniyazov, Sahibjamal

«BAXTLI MAKTAB» LOYIHASI

Aziz bolajonlar! O'smirlilik davrida ruhiyatingizda ba'zi o'zgarishlar ro'y beradi. Bu paytda biz ustoz-u ruhshunoslar sizga ko'maklashishga harakat qilamiz. Xabaringiz bo'lsa, bu borada Oksford Brusk universiteti (Buyuk Britaniya) qoshidagi Salomatlik va ijtimoiy farovonlik maktabi tomonidan 10–14 yoshdagi bolalarga mo'ljallangan «Mustahkam oila» dasturi yaratilgan. Ushbu loyihaning rivojlanishiga esa AQSHning Ayova shtatida o'tkazilgan yuqori sifatli ilmiy tadqiqotlar katta yordam berdi.

E'tiborlisi, bizning maktabimizda ushbu dasturni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha qator ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Aytish kerakki, mazkur loyiha yetti bo'limdan tashkil topgan bo'lib, uning asosiy maqsadi kelgusida o'smirlar va ularning ota-onalari o'rtasida yaxshi munosabatlarni shakllanishiga yordam berishdan iborat. Yaqinda o'quv dargohimizda o'quvchilar va ularning ota-onalari ishtirokida ajoyib mashg'ulot o'tkazdik. Tadbirida onasi bilan faol ishtirok etgan 5–«B» sinf o'quvchisi Muslima Akromovaga «Tugun» o'yini juda manzur bo'ldi. Mashg'ulot o'quvchilarga mustaqil hayotdagi muammolarni yechishda irodali bo'lishni o'rgatdi.

Qolaversa, dastur o'smirlarning o'z tengdoshlari bilan muloqot qila olishi, noma'qul xatti-harakatlarga berilmasligi, ichkilikbozlik va giyohvand moddalar iste'mol qilishga qarshi kurashishga xizmat qilishi bilan yanada ahamiyatlidir. Dastur doirasida o'tkazilayotgan

mashg'ulotlar davomida ota-onalar o'z bolalarini giyohvand moddalar va spirtli ichimliklardan saqlash usullari hamda ularni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini qanday oshirish mumkinligini ham bilib



olmoqda. Masalan, ular farzandlariga maktab yozib, unda dilbandlariga faqat yaxshilik tilashlarini bayon etganlari barchani ta'sirlantirdi.

Surayyo SHAMSIYEVA,
Iroda TO'XTAYEVA,
poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek
tumanidagi 308-umumta'lim maktabi
ruhshunoslari

Lesson 9

INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ

HOW TO USE CONDITIONAL SENTENCES

Zero conditional: zero conditional sentences are used to describe general truths – situations which one thing causes another. When we use a zero conditional, we are talking about a general truth rather than a specific instance of something.


e.g. If you don't brush your teeth, you get cavities.

First conditional: First conditional sentences are used to express situations in which the outcome is likely to happen in the future.

e.g. If you rest, you will feel better.



Supply the suitable form of verbs in brackets.



1. If it doesn't _____ (rain), plants cannot grow.
2. If we _____ (finish) our homework, we can go out.
3. If pupil _____ (go) to bed late, he/she cannot wake up in time.
4. If Sardor _____ (get) a good grade from his English, his father will take him to the theater.
5. If my friend apologizes to me, I _____ (forgive) him.
6. If you _____ (want) to meet with her, call her before 5:00.

7. If you _____ (study) harder, you can pass the exam.
8. If Nigora's father _____ (buy) a car, he will drive us to school.

Muhammadsharif FAYZULLAYEV

THE ENTHUSIASM OF LEAP

Spring... We miss this vivid nature. Green leaves which are pleasant to be full bud on the trees. Spring is a moment when attractive wind touches our face. As if singing birds are war-

wers are in blossom, nature covered green as if all stunning things were gathered in this season. In fall birds which flew to the south come back and animals

Painter: Sumbula MELIMURODOVA



bling like

«We came back. Happy renew season!» From the East the sun shines and it makes farmers to go the field. What a wonderful first down is. In this season roosters shout in the morning, the sun gets red in the evening like a boy, who did something wrong, all of these are pleasure. As if the winter obeyed the spring. Seldom, cool wind blows, but ice thaws in ditches from the light of the sun like drops and ice turn into water.

This season is considered «bride of seasons». Because in spring flo-



which were asleep wake up in this season like a morning person.

The reason of writing this etude is wonderful adventures which happen in the spring and it swayed me. Also I get involved in marvelous nature. Of course, I think not only me, but also everyone must keep and love gorgeous nature like their eyes.

Ayjamal KARAMATDINOVA,
The student of Uzbekistan State
University of World Languages

Mahmud TO'YCHIYEV

TO'RT FASL

Bahor kelar olamga,
Gulga to'lib quchog'i.
Ko'klamoyning ko'rkidan,
Yashnar o'lkam har yog'i.

Yozda tunlar qisqarib,
Tez qaytardi yotoqqa.
«Yoz yozligin qilsin», deb,
Yo'l ochadi oftobga.

Saxiylikda, ayting, kim,
Teng kela olur kuzga?
Bor-yo'g'ini ayamay,
Tortiq qilar siz, bizga.

Qishda ona tabiat,
Ta'til istab qolarkan.
Qor ko'rpsin ostida,
Yer ham mizg'ib olarkan.

Bahor, yoz, kuz hamda qish,
Ahil-inoq yasharkan.
Aka-uka, singildek,
Bir-birin alqasharkan.

Xizmatlar turlicha-yu,
Niyatlari bir ekan.
«Odamlar-u tabiat,
Bizdan naf ko'rsin», derkan.

Yetaklashib bir-birin,
Kelishlar har yilda.
To'rt fasl to'kis kelsa,
To'kinlik bo'lar elda.



UYIMIZ BO'LSIN BAHOR

Har yil bahorni yo'qlab,
Qirga chiqar lolalar.
Yarog'ida tovlanar,
Alvon rangda jolalar.

Lolaginam lolajon,
Senga aytar so'zim bor.
Kel dugona bo'laylik,
Uyimiz bo'lsin bahor.



Aziza OQILOVA,
Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi
23-umumta'lim maktabi o'quvchisi

SINGLIM

Sho'x-shodon kulsang
gar yuragim to'lib,
Men senga boqaman
mahliyo bo'lib.
Quvonchga to'laman
quvonching ko'rib,
Yuragim parchasi sendirsan,
singlim.

Qo'llaringdan asta yetaklab borib,
Bergan va'damdan hech qolmasdan tonib.
Doim atrofingda parvona bo'lib,
Qalbimning parchasi sendirsan, singlim.

Ko'zlaring quvonchdan ketsa gar yonib,
Sening baxting ko'rsam har dam quvonib.
Uyqudan turaman birdan uyg'onib,
Ko'nglimning parchasi sendirsan, singlim.

Nigina BOZOROVA,
Buxoro shahridagi 12-umumta'lim maktabining
11-sinf o'quvchisi



KO'KLAM KELDI

Qor ham asta suv bo'lib,
Yer ostiga berkindi.
Ariqlarga suv to'lib,
Qish ham ortga chekindi.

Tabiat ham shoshilib,
Ko'ylak bichar bahorga.
Gushlar ham chug'urlashib,
Uyg'onishar nahorda.

Yalpiz ham bosh ko'tarib,
Ko'rsatdi quloqchasin.
Cho'pon haydar yaylovga,
Qo'y, echki-uloqchasin.



Gulruhsorxon NAZIRALIYEVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
44-umumta'lim maktabining
6-«A» sinf o'quvchisi

DALALAR GULGA TO'LDI

Elimga bahor keldi,
Dalalar gulga to'ldi.
Yuraklarni quvnatib,
Navro'zi ayyom keldi.

Tashrifingdan aylanay,
Bahoroyim, bahoroy.
Sening muattar hiding,
Yuraginga joylangay.



Ulug'bek NARZULLAYEV,
G'ijduvon tumanidagi
43-umumta'lim maktabining 2-«D» sinf
o'quvchisi

DONISHMAND BOBO ERTAKLARI

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Xudoyberdi TO'XTABOYEV, O'zbekiston xalq yozuvchisi

Qadim-qadim zamonda kunchiqar tomonda baland cho'qqilardagi oppoq qorlarni ko'z-ko'zlab turgan tog'lar yonida xilvatgina bir qishloq bor ekan. Bu yerning odamlari mol-qo'y boqar, mevalardan quritib, bozorga chiqarib sotar ekan. Ayollar ro'zg'or yumushlarini bajarar, erkaklar esa dala ishlari bilan mashg'ul bo'lar ekan. Mana shu mo'jazgina qishloqchada ikkita tengqur o'rtoq yashar ekan. Bir kuni ikkovlari o'tirib:

— Do'stim, mana, yoshimiz ham bir joyga borib qoldi. O'g'il-qizlari-miz ham voyaga yetdi. Endi shu angishvonadek kichkina qishloqda yashamay dunyoni bir aylanaylik, armonimiz qolmasin, — deyishibdi. Bu fikr ikkovlariga ham ma'qul bo'libdi. Xurjunga oziq-ovqatni g'amlab, safarga otlanishibdi.

Bir yurtga borib ko'zalar, kosalar, laganlar qanday tayyorlanayotganini ko'rib, zavqlanishibdi. Yana bir o'lkaga borib, 50 metr balandda, ingichka arqon ustida bir yigitcha qo'lidagi ikki quloch kaltakni ushlab yugurib borayotganini ko'rishibdi. Yana bir mamlakatga borishsa, katta-katta do'konlarda dunyoga sig'mas matolar sotilayotganiga guvoh bo'lishibdi.

Lekin ortga qaytayotib, ularning yo'llari nogahon sahroi biyobonga to'g'ri kelib qolibdi. Yo'lni yaxshi bilmaganlari uchun ikki do'st goh

yerda baribir ochlikdan, suvsizlikdan o'ladiganga o'xshaymiz. Ikki kishidan ko'ra bir kishi o'lgani yaxshi emasmi?!» deya o'rtog'ining xurjunidagi

XIYONATNING JAZOSI

(Ertak)



o'ngga, goh chapga qarab yurishibdi. Axiyri holdan toyib, charchab, bir to'p yulg'in tagida dam olmoqchi bo'lishibdi. Shunda ularning biri darmonsizlik tufayli hushidan ketib qolibdi. Sherigi hali hushyor, oyog'ida kuchi, belida quvvati bor ekan. U «Bu

ozgina nonni, idishda ortib qolgan suvini olib, yo'lga tushibdi.

Shu payt behush yotgan odamning sal narisidan karvon o'ta boshlabdi. Tuya minib ketayotgan bir yigitning ko'zi nogahon yerdagi holsiz tanaga tushib, hamrohlarini chaqiribdi.

Karvondagilar borsa, pahlavondek yigit behush yotgan emish. Unga suv bergach, yigit o'ziga kelibdi va «Rosa ko'p uxlaganga o'xshayman», debdi. So'ng, yonidagi bo'shab qolgan xurjunini olib, karvonga qo'shilibdi. Karvon boshlig'i yigitni tuyaga mindirib qo'yibdi. Ular yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Bir mahal karvonni boshlab borayotgan yigit:

— Xojam, anavi yerda bir odam jonsiz yotibdi, — debdi.

Karvonga qo'shilgan yigit borib qarasa, yerdagi odam do'sti ekan. Bu holatdan uning hushi boshidan uchibdi.

— Axir bu do'stim-ku! Mana bu xurjun, mana bu sanoch esa meniki, — deb dod-faryod chekibdi. So'ng, cho'kka tushib, do'stini turg'azishga harakat qilibdi. Ammo endi juda kech edi...

Ko'pni ko'rgan karvonboshi:

— «Yolg'iz yurganni bo'ri yeydi», degan gap bor, buni hech birimiz unutmaylik, — debdi.

Shunday qilib, xiyonatchining qabri sahroi biyobonda qarovsiz qolib ketibdi.

(Davomi bor)



CHEMPIONLAR KASHF ETILADI

*Tulpor, tulpor, tulpor, tulpor,
Belida egar, belida egar.
Shamol, shamol, shamol, shamol,
Novdani egar, novdani egar.*

Sevimli san'atkorimiz Doston Ubaydullayev tomonidan ijro etilgan ushbu qo'shiqni har gal tinglaganimda, yuragim cheksiz quvonch va hayajonga to'ladi. Qalbimda beixtiyor uzun yolli, mag'rur, sadoqatli, sirli bu jonzotga o'zgacha mehr tuyaman. Bolaligimda ertak va dostonlarda ko'kka qanot yoyib uchgan Boychibor, G'irko'k, Ko'kaman kabi otlar haqida o'qiganimda ham bu beozor jonzot mening eng yaqin do'stimga aylangan edi. Eh, o'sha uchar otlar yaralanib qolgan paytlari ko'zimga kelgan yoshlarni eslasam, yana yig'lab yuborishdan o'zimni bazo'r tiyaman.

Agar bilsangiz, o'tmishda bugun biz yashayotgan zaminda ko'plab zotdor otlar parvarishlangan. Jumladan, Farg'ona vodiysi hududidagi qadimgi Dovon mamlakatining uchar otlari butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan. Ushbu uchqur otlar haqida miloddan avvalgi Xitoy yozma manbalarida ham ko'plab qimmatli ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, chinliklar bu noyob jonzotlarni qo'lga kiritish uchun juda ko'p bor ter to'kishgan.

Bugun ham yurtimizda yilqichilik va ot sportini ommalashtirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, mazkur sport turi orqali yurtimizni xalqaro maydonlarda munosib tanitish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda yilqichilik va ot sporti federatsiyasi tashkil etildi, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlarida Qorabayir zotli otlarni yetishtirish va ko'paytirish bo'yicha majmualar faoliyat ko'rsatmoqda. Toshkent viloyatida esa Axaltaka zotli va sport otlarini yetishtirish va ko'paytirish ot zavodini qurish, shuningdek, Xalqaro ot sporti federatsiyasi talablarini inobatga olgan holda Toshkent shahridagi «Markaziy ippodrom»ni to'liq rekonstruksiya qilish loyihalari amalga oshirilmoqda.

Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ot sporti sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha qarori qabul qilindi. Ushbu hujjatda tizimdagi muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish, o'zbek ot sporti dovrug'ini butun dunyoga tanitish, mamlakatimizda zotdor otlarni parvarishlash, yosh avlod orasidan yangi-yangi chavandozlarni kashf etish, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonli bo'lgan bolalarni ippoterapiya uslubi yordamida tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'yicha tizimli ishlar, qator vazifalar belgilab olindi. Shuningdek, qaror ijrosi yuzasidan yangi tashkil etiladigan bolalar-o'smirlar ot sporti maktablarini moddiy-texnik jihozlash borasida ham ko'plab xayrli tadbirlar amalga oshiriladi.

Qilinayotgan bu ezgu sa'y-harakatlar tufayli oralarigizdan yaqin kelajakda Osiyo va jahon chempionlari, Olimpiya o'yinlari sovrindorlari yetishib chiqadi, albatta. Biz bunga ishonamiz.

Sa'dullo TURSUNOV

XIVALIK O'QUVCHILAR har jabhada peshqadam

Darsga qo'ng'iroq chalinib, hovlida o'ynayotgan o'quvchilar sinflari tomon shoshilishdi. Navbatchi o'qituvchi bolalarga mashg'ulotga tayyorlanishni tayinladi. Zumda atrof suv quygandek jim-jit bo'ldi-qoldi. Eshik ochilib, xonaga o'qituvchi kirib keldi va dars boshlandi...

Bu jarayon barchangizga tanish, shundaymi, aziz o'quvchim? «Dars – muqaddas» tamoyiliga asoslanib saboq berayotgan ustozlarning siz aziz bolajonlardan orzu-umidlari katta. Axir siz ertamiz vorislari, mustaqil Vatanimizning suyanichsiz. Kelajagingiz nurli bo'lishi uchun, avvalo, maktabda mustahkam bilim olishingiz, o'z ustingizda ko'proq ishlashingiz kerak bo'ladi.

Bu gal ko'hna Xorazm viloyatining Xiva tumanidagi 16-umumta'lim maktabi o'quvchilari va ular erishayotgan yutuqlar haqida hikoya qilamiz. Shu maqsadda maktab direktori Nodira opa Jumaniyozova bilan bog'landik.



Shonazar Xudoyberganov matematika fanidan o'quvchilarga puxta bilim beradi.

– «Tong yulduzi»ni o'quvchilaringiz katta qiziqish bilan o'qishadi. Endi ularning havasi yanada ortadi, – dedi quvonib Nodira opa. – Bilim dargohimizda bo'lajak sportchilar, o'qituvchi-yu muhandislar tahsil olmoqda.

Jumladan, ilm maskanimizning 8-«A» sinf o'quvchisi Ravshanbek Matyoqubov, 10-«B» sinfidan Tohirjon Egamberganov tarix, Shahrizoda Ozodova iqtisod, 10-«D» sinf o'quvchisi Umida Allamberganova, 11-«A» sinfidan Mushtariy Murodbekova nemis tilidan, 11-«D» sinfidan Farida Abdurasulova biologiya fanidan olimpiadaning shahar hamda viloyat bosqichlarida faxrli o'rnlarni egalladi. Maktabimizning ijodkor qizlari – Shalola Abduazova hamda Nurxonoy Hayitovanning ishtirokisiz hech bir tadbirimiz o'tmaydi. Bu qizlar Zulfiyaxonim izidan borib, yetuk shoir bo'lishni oldilariga maqsad qilgan. Qolaversa, 7-«D» sinf o'quvchilari Hasanboy va Husanboy Otanazarovlar sportning qo'l jangi, 7-«E» sinfidan Mirabbos Otajonov boks, 10-«D» sinfidan Farrux Sobirov og'ir atletika, 9-«A» sinfidan Temur Mamedov belbog'li kurash bo'yicha qo'lga kiritayotgan yutuqlari bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Shuningdek, maktabda Xongaldi Ibragimov, Umrbek Madaminov, Xushnud Matnazarov, Farog'at Atayeva, Shonazar Xudoyberganov, Marhabo Matniyozova, Nilufar Jabborova kabi fidoyi ustozlar o'quvchilarga yuqori darajada bilim berib kelmoqda.



So'zimiz so'ngida ushbu maktabning jonkuyar, fidoyi ustozlariga yosh avlodni tarbiyalashdek mashaqqatli ishlarida omad, o'quvchilarga esa ezgu tilaklar ijobatini tilaymiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

«GULDASTA» – ADABIY TOPSHIRIQ

1	Gul			***	1/1	3/2	14/3	5/4
2	Gul				*****			4/5
3	Gul				*****			13/4
4	Gul					*****		6/5
5	Gul						***	7/8
6	Gul						***	12/7
7	Gul						***	10/5
8	Gul						***	2/1
9	Gul						***	8/5
10	Gul						***	5/8
11	Gul						*****	
12	Gul							***
13	Gul							***
14	Gul							

1. «Alisher Navoiy» dramasi usta san'atkor Sora Eshonto'rayeva gavdalantirgan qahramon. 2. Abxaziya xalq shoiri. 3. XVI asrda yashab ijod qilgan mumtoz adib Xoja qalamiga mansub mo'jaz hikoyalar jamlangan asar. 4. O'zbek xalq dostoni. 5. Atoqli adib Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning «Bola Alisher» qissasidagi shoirning onasi. 6. O'zbek mumtoz shoiri, «Zarbulmasal» asari muallifi. 7. Mumtoz shoir, mutafakkir Sa'diy Sheroziyning mashhur asarlaridan biri. 8. Ingliz adibi Jonatan Sviftning mashhur yagona romani qahramoni. 9. Buxorolik tarixchi shoir, «Tarixi Humoyun» asari muallifi. 10. Alisher Navoiyning «Sab'ayi sayyor» dostoni birinchi hikoyasi qahramonlaridan biri. 11. Atoqli qirg'iz adibi Chingiz Aytmatovning «Oq kema» qissasi qahramoni. 12. Bekmurod Jo'raboy o'g'lidan yozib olingan «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlardan biri. 13. Xorazm xalqining mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashi aks etgan o'zbek xalq rivoyati. 14. Turk adibi Rashod Nuri Guntekin qalamiga mansub «Choliqushi» romanida tilimizda gulqand ma'nosini anglatuvchi, asar qahramoni Feridega berilgan nom.

JUMBOQ: Shakldagi raqamlar juftini (birinchisi so'z, ikkinchisi harf tartibini anglatadi) topshiriq javoblaridagi harflar bilan almashtirish orqali jumboqni hal eting. Bunda ulardan shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning farzandi, o'rta asr sharqida birinchi tarixchi olimi nomini bilib olasiz. Bilasizmi, u qaysi nodir asarni yozib qoldirgan?

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

4-mart 2019


RANGLAR JILOSI

Navoiy viloyati, Uchquduq tumanidagi 20-umumta'lim maktabi o'quvchilari chizgan rasmlar.



Manzara

Parizod NASIRDINOVA,
7-sinf o'quvchisi



Natyurmort

Shohruh OMONQULOV,
4-sinf o'quvchisi

Pazanda qizga!



Aziz qizlarjon! Mana, bahor fasli ham kirib keldi. Hademay ko'klamning ilk ayyomini qarshi olamiz.

Bayram dasturxonini bezash uchun sizlarga antiqa taom va shirinlik pishirishni tavsiya qilamiz. O'ylaymizki, bu oila a'zolaringizga xush yoqadi.

QOVOQCHALI GURUCH

Kerakli masalliqlar: 2 dona qovoqcha (kabachki), 2 dona pomidor, 1 dona piyoz, 100 gramm guruch, 1 oshqoshiq pomidor qaylasi, 200 gramm suv, 3 oshqoshiq o'simlik yog'i, 2 dona sarimsoqpiyoz bo'lasi, ko'katlar hamda ziravorlar.

Tayyorlanishi: qovoqchani o'rtacha qalinlikda, uzunchoq shaklda, piyoz, pomidor, ko'katlar va sarimsoqpiyoz esa mayda to'g'aladi. So'ngra, o'simlik yog'ida piyoz oltin rangga kurguncha qovuriladi. Ustidan zira sepiib, pomidor hamda pomidor pastasi solinadi va 5 daqiqa dimlanadi. Keyin yuvilgan guruch, biroq o'tib qovoqchalarni solib, suv quyib yana dimlanadi. Olovni pasaytirib, 20-25 daqiqaga qoldiring. Taom tayyor bo'lgach, ustiga ko'katlar, murch va qalampir sepiib, dasturxonga torting.

QARSILDOQ PECHENYELAR



Kerakli masalliqlar: 200 gramm margarin yoki sariyog', 2 dona tuxum sarig'i, 1 stakan shakar, 2,5-3 stakan un va vanilin.

Tayyorlanishi: xona haroratida eritilgan margarin yoki sariyog'ni shakar bilan aralashtiring. 1 dona tuxumning sarig'i va yana 1 dona tuxumga vanilin qo'shib, bir xil aralashma hosil qiling. So'ng, unni oz-ozdan solib, qo'lga yopishmaydigan qilib xamir qoring va muzlatgichga bir soatga qoldiring. Tingan xamirni 1-1,5 sm qalinlikda yoyib, yarim doira shaklida kesing va o'rtasidan teshikchalar hosil qilib, qizdirilgan gaz pechida 20 daqiqa davomida pushti tusga kurguncha pishiring. Sovigan pechenyelarning o'rtasini jem bilan to'ldiring va ustiga qand upasini seping.

Endi tayyor bo'lgan taom va shirinlikni dasturxonga tortishingiz mumkin.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

8



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sayyora QODIROVA

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-
xonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati
chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzilmiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi - 14670
Buyurtma - 3179

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi
uchun obunani rasmiylashtirgan
tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni
chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08